

BOSHLANG’ICH TA’LIM YO’NALISHLARI TALABALARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH DOLZARBLIGI.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544850>

Toshtemirova Ozodaxon Ikromali qizi

Andijon davlat pedagogika inisituti
Ta’lim tarbiya nazaryasi va metodikasi
(boshlang’ich ta’lim) mutahasisligi magistranti.

Annotatsiya: mazkur tezisda boshlang’ich ta’lim yo’nalishlari talabalarida tafakkurni rivojlantirish, ta’lim sohasida yuksalishning ilk bosqichlarini tashkil qilgan - boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini barkamol shaxs sifatida yetishtirish uchun zaruriy jarayon ekanligi qayd etilib o’tilgan.

Kalit so’zlar: tafakkur, kompetent, kreativlik, strategiya, tajriba, ijodiy yondashuv, metodlar.

XXI asr O’zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida bir qator yangiliklar va o’zgarishlar yuzaga keldi. Bularning baridan ko’zlangan asosiy maqsad albatta ta’lim sohasini rivojlantirish, barkamol, har sohada jahon miqiyosida raqobatlasha oladigan yetuk shaxslarni yetishtirmoqdir. Bugungi kunga kelib faqatgina “Kadr” emas balki salohiyatli kadrlar, kreativ fikrlovchi kadrlar, texnologiyalardan samarali foydalana oladigan kadrlar, innovatsion strategiyalarni targ’ib qiluvchi kadrlar zamon talabidir. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki raqobatga kirisha oladigan ijodkor, kreativ, innovatsion tafakkur sohiblari yetishtirish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Bu masalalar yuzasidan fikirlar almashinuv jarayonlarida shunga amin bo’lindiki, bularning bari inson tafakkuri bilan bog’liqligi namoyon bo’ldi. U qanchalar yuksak hamda keng bo’lsa o’sish, rivojlanish ham shu qadar yuksaklashadi. Inson yaralib aqlini tanibdiki u taffakkur qiladi. Demekki bu tafakkur tushuncha insoniyat yaratilgandan buyon paydo bo’lgan faqatgina bu yangi davr atamasi sifatida yangi davr bilan bog’lanmoqda. Tafakkur so’zi aslida arabcha fikr so’zidan kelib chiqqan bo’lib, muhokama qilish, o’ylash, fikr yuritish kabi ma’nolarni anglatadi.

Ekzistentsializmning asoschisi bo’lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1978) “Tushunish uchun o’z diqqatimizni qarata olsakkina biz fikrlashga o’rganamiz” - deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o’rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi. Xaydegerning fikricha: “Tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta’limotga

asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta’limotni logika, mantiq deb ataydi”. Bu fikrlardan xulosa qilib shuni ayta olamizki, mana nega aynan tafakkuri yuksak bo’lgan insonlarga - tolub, tolibalarga talab yuqori?

“Hozirgi yashayotgan yangi avlod erkin, mustaqil, ijodiy va tanqidiy tafakkurga ega hisoblanadi. Ular mustamlakachilik davrida yashagan avloddan ko’ra ijtimoiy qo’rquvdan yiroq, siyosiy va ijtimoiy faoldir. Boqimandalikni har qanday ko’rinishini o’ziga or deb biladigan, izlanuvchan, omilkor va keng bilimlidirlar”.¹ Bugungi kundagi imkonyatlar yanada yuqori bo’lganligi sababli biz avlodlarimizdan ko’proq imkonyatlarga egaligimiz ham yanada rivojlanishimiz uchun bir turtkidir.

Birinchi prezident I.A.Karimov ham: “ Har qanday narsani qabul qilish uchun ham ongni, tafakkurni tobeklik va qo’rquvdan tozalash zarur. Zero, ongni o’zgartirmasdan turib biz o’ylagan maqsadlarimizga yetib bo’lmaydi”² degan mazmundagi so“zlarni aytgan edilar.

Kelajak yoshlarning tafakkurini shakllantirish uchun nimalar qilmoq lozim? Yoshlarning qanday komol topishi albatta u yashayotgan jamiyatga, muhitga, oilasiga eng asosan ta’lim tarbiya berayotgan o’qituvchilariga bog’liqdir. Shu sababli avvalo biz o’qituvchilar sifatli ta’lim, tarbiya bera olishlari uchun o’z kasbi, fani doirasida kompetentlarga ega bo’lishini, ijodiy yondasha olish qobiliyatini rivojlantirishini, integratsiyalarni qo’llay olishini, metodlar yaratib ularni tadbiq qila olish qibiliyatlarini shakllantirishni taminlashimiz zarur. Bu xususiyatlar bilan qurollangan o’qituvchi albatta katta ehtimol bilan o’quvchilarga yetarlicha bilim, malaka, ko’nikma bera oladi.

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalarida tafakkur ko’nikmasini takomillashtirish jarayonlari quyidagi loyihalar asosida shakllantirish mumkin. Bular: seminar treninglar, ekuskursiyalar, amaliy mashg’ulotlar, ilmiy konfrensiyalar, davra suhbatlari, pedagogik amalyotlar, kitobxonlik kechalar, ijodkorlik ishlari kabi bir qancha loyihalar keltirib o’tish mumkin.

Nafaqat tafakkur endilikda innovatsion tafakkurni shakllantirish ham dolzarbdir. Tafakkurni aqlan sog’lom bo’lgan inson ham qilishi mumkin ammo innovatsion tafakkur uchun esa insonga bilim,tajribalar, salohiyat kabi xususiyatlarga ega bo’lmog’i lozim. “Innovatsion tafakkur tushunchasi - avval yechimi bo’lmagan masalalarning yangi, original yechimlarini o’ylab topishga, izlanishga, imkon topishga amaliy yordam beruvchi va ijodkorlik faoliyatini o’z ichiga olgan, mustaqil fikr yuritishga yo’naltirilgan faoliyat jarayonidir, desak maqsadga muvofiq bo’ladi. Innovatsion fikr, nafaqat yangi ijodiy mahsulotni yaratish, balki, uni amaliyotga joriy etishda samarali fikrlashni va uni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. O’z oldiga

¹ Abdurahim Erkayev. Tafakkur erkinligi T. “Ma”naviyat” 2007. 7-bet.

² I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari T. “O’zbekiston” 1998. 17-bet

ma’lum bir maqsadni qo‘ygan va unga erishish yo‘llarini tanlagan har bir talaba ma’lum darajada o‘zdunyoqarashiga, fikrlashi, tafakkuri, tasavvuri va tushunchalariga, shuningdek, shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ehtiyojlarga asoslanadi, bunda uning irodaviy harakatlarining vositalari sifatida uning maqsadi, xohishi, istagi bilan birga, uning manfaatlari va ehtiyoji maydonga chiqadi hamda eng asosiysi mazkur vositalar uning innovatsion tafakkur, fikrlash ko‘nikmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etuvchi mexanizmlar sifatida maydonga chiqadi”³

“Innovatsion fikrlash ko‘nikmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning tahlilida qulaylik uchun bu faoliyat modelini yaratishda pedagogning ana shunday innovatsion jarayon bosqichliligiga tayanamiz. Innovatsion faoliyat bevosita talabalar bilan o‘zaro ta’sir davomida kechadi, shuning uchun pedagogdan o‘zining ruhiy holatini boshqara olish, o‘zida va faoliyat ishtirokchilari bo‘lgan talabalarda tezkorlik bilan ijodiy hissiyotni uyg‘ota olish, pedagogik aloqada ijodiy jarayonni amalga oshirishni talab qiladi. Innovatsion jarayon ushbu kasbiy xususiyatlari pedagog faoliyati mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi”.⁴

Zamon talabiga uyg‘un holda rivojlanish har sohada talab qilinayotgan hamda kutilyotgan bir vaqtida tafakkurni rivojlantirish orqaligina yechim topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mamadiyev A. A Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 01 | 2022 ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz/. 470-bet.
2. Tolibova M. T. *O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari*. <https://tsue.uz/>. 636-bet.
3. Abdurahim Erkayev. Tafakkur erkinligi T. “Ma“naviyat” 2007. 7-bet.
4. I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari T. “O“zbekiston” 1998. 17-bet
5. Xolikova. D. M SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601. www.scientificprogress.uz 176-178-bet.
6. Xolikova Dilobarxon Maksitovna . Journal of pedagogical and psychological studies. Volume I, Issue 5.84- bet
7. ¹ Rahim, U. (2021, May). Social factors of the interdependence of mental and physical activity. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).

³ Xolikova Dilobarxon Maksitovna . Journal of pedagogical and psychological studies. Volume I, Issue 5.84- bet

⁴ Rahim, U. (2021, May). Social factors of the interdependence of mental and physical activity. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).